




XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Xorazm viloyatida
kichik tadbirkorlik**
2022- yil yanvar- sentabr

Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik


Yanvar- sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, %da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar- sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **71,9** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **12,8** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- sentabrida **4 491** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil etildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **131,6** %ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da

Savdo

36,0%

Sanoat

22,3%

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

17,0%

Yashash va ovqatlanish


5,0%

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi kichik korxona va mikrofirmalar savdoda – **1 619** ta, sanoatda – **1 000** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **764** ta, yashash va ovqatlanishda - **224** tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari




2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da



2022- yilning yanvar-sentabrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, %da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar



2022-yil yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar, %da

Savdo

34,9%



Sanoat

18,9%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

12,9%



Qurilish

8,4%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,8%



Tashish va saqlash

4,0%



Axborot va aloqa

1,5%



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2,1%




Boshqa faoliyat turlari

10,5%



Yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021 - y.

■ 2022 - y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda


Urganch sh.	620	591	Tuproqqa'l'a	119	126
Xiva sh.	249	271	Xonqa	250	297
Bog'ot	279	416	Xiva	204	305
Gurlan	191	362	Shovot	191	365
Qo'shko'pir	255	389	Yangiariq	151	310
Urganch	387	465	Yangibozor	182	227
Hazorasp	335	367			

■ 2021- y. yanvar-sentabr

■ 2022- y. yanvar-sentabr

2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri – 13,2 %, Urganch tumani – 10,2 %, Hazorasp tumani – 8,2 %, Bog'ot tumani – 9,3 %, Qo'shko'pir tumani – 8,7 %, Hazorasp tumani – 8,2 %, Gurlan tumani va Xonqa tumani – 8,1 % hissalariga to'g'ri keldi.






Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar - sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022– yilning yanvar- sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

1619 ta

Sanoatda

1000 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
764 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda
224 ta


Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




2022- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 12,8 birlikni tashkil etdi.



Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*



2022- yilning yanvar- sentabrida har 1000 aholiga kichik tadbirkorlik subyektlari sonining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch sh. - 33,1 birlik, Xiva sh. - 22,2 birlik, Urganch tumanida 13,8 birlik, Yangibozor tumanida 13,7 birlik, Xiva tumanida 12,6 va Yangiariq tumanida 11,5 birlikni tashkil etgan.



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida


**Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda),
2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra***

Eng yuqori ko'rsatkich
Urganch shahri - 33,1 birlik

O'rtacha ko'rsatkich
Gurlan tumani - 10,8 birlik

Past ko'rsatkich
Hazorasp tumani - 7,0 birlik


2022- yilning yanvar- sentabrida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



2022- yilning yanvar-sentabrida har 1000 aholiga kichik tadbirkorlik subyektlari sonining tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichi Urganch sh. 33,1 birlik, Xiva sh. 22,2 birlik, Yangibozor tumanida 13,7 birlik, Urganch tumanida 13,8 birlik, Xiva tumanida 12,6 birlik, Yangiariq tumanida 11,5 birlik, Gurlan tumanida 10,8 birlik, Tuproqqa'l'a tumanida 10,5 birlik, Qo'shko'pir tumanida 10,5 birlikni, Xonqa tumanida 10,0 birlikni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 115,1 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 57,8 %ini tashkil etdi.




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

2022- yilning yanvar- sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, %da



2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Xiva sh.– 96,0%, Xiva tumanida – 93,8%, Qo'shko'pir tumanida – 93,0%, Yangibozor tumanida – 92,6%, Hazorasp tumanida – 85,7% va Bog'ot tumanida – 69,0% ni, eng past ko'rsatkich Shovot tumanida – 10,3% ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Xiva sh. – 96,8%, Hazorasp tumanida – 95,2%, Urganch tumanida – 86,6%, Bog'ot tumanida – 86,0%, Xiva tumanida – 81,0%, Qo'shko'pir tumanida – 67,4%, Urganch sh. – 64,1%. Eng past ko'rsatkich Tuproqqa'l'a tumanida – 2,4%ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **133,6** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **34,0** %ini tashkil etdi.




2022- yilning yanvar- sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 123,4** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (504,5 mlrd so'm), Urganch (358,5 mlrd so'm), Xiva shahri (167,8 mlrd so'm), Xonqa (165,6 mlrd so'm) va Tuproqqa'l'a (164,6 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Yangibozor tumanida (61,4 mlrd so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **16,2 %ni** tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, %da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva sh. (100,0%), Xiva (57,1), Urganch (54,6%), Yangiariq (41,0%), Xonqa (35,3%), Qo'shko'pir (34,6%), Bog'ot (33,3%), Gurlan (29,4%), Hazorasp (24,3%) tumanlari, Urganch sh. (21,8%) va Shovot (17,5%) tumani tashkil etdi. Tuproqqa'l'a tumanida (2,4%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7 276,7** mlrd soʼmni yoki umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasining **81,0%**ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **104,7%**ni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- sentabrida hududlar boʼyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʼsish surʼati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʼp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (1899,2 mlrd soʼm), Hazorasp (846,9 mlrd soʼm), Urganch (821,3 mlrd. soʼm), Gurlan (704,9 mlrd soʼm), Shovot (527,3 mlrd soʼm) va Xonqa (501,9 mlrd soʼm) tumanlari hissasiga toʼgʼri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi



2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 265,6** mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **90,7%**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **101,6%**ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (625,2 mlrd so'm), Xiva (330,9 mlrd so'm), Urganch (317,0 mlrd so'm), Xonqa (248,6 mlrd so'm), Qo'shko'pir (235,7 mlrd so'm) tumanlarida, Xiva sh. (228,1 mlrd so'm) va Gurlan (219,1 mlrd so'm) tumanida qayd etildi.


2022- yilning yanvar- sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



■ hajm, mlrd so'm

■ o'sish sur'ati, %


Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati



yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4 637,6 mlrd so'mlik** xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **62,8%**ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **110,7%**ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Urganch sh. (1095,3 mlrd so'm), Urganch (407,5 mlrd so'm), Xonqa (354,1 mlrd so'm), Hazorasp (351,2 mlrd so'm), Gurlan (317,1 mlrd so'm), Xiva (317,1 mlrd so'm) va Bog'ot (314,0 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




■ hajm, mlrd so'm


○ o'sish sur'ati, %

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar- sentabrida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:



Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,1%ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,4%ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 82,8%ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,7%ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,6%ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,4%ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 96,1%ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,9%ni tashkil qildi.


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtaida tanlanma kuzatuvlari o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma da **1 064** ta kichik korxona va mikrofirma ishtirok etdi. Ularning 395 tasi (37,1%) iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 633 ta (59,5%) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 36 ta (3,4%) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,7% (71 ta), sanoatda – 15,8% (168 ta), qurilishda – 7,1% (76 ta), savdoda – 41,3% (439 ta), xizmatlar sohasida – 29,1% (310 ta)ni tashkil etdi.

2022- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %da




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %da


Hududlar kesimida kichik tadbirdorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Urganch sh. (252 ta), Urganch (124 ta), Xonqa tumani (88 ta), Xiva sh. (71 ta), Gurlan (68 ta) va Hazorasp (63 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



2022-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2022-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022-yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 45,1%ni, savdo sohasida 38,3%ni, sanoatda 35,7%ni va xizmatlar sohasida 35,3%ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda 64,5%ni, xizmatlar sohasida 60,8%ni, savdo sohasida 59,0%ni tashkil etdi.

2022-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 49,3%ni, savdo sohasida 40,1%ni, sanoatda 38,7%ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda 61,8%ni, xizmatlar va savdo sohasida 57,9%ni tashkil etdi.

